

**KONFERENSIYALAR** COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiya  
MATEARIALLARI



1-JILD | 4-SON

**2025-YIL**

# **O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR**

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, dekabr

**TOSHKENT-2025**

**ISBN-978-9910-8337-5-5**

**O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar** IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 4-son (dekabr, 2025-yil). – 55 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 9-dekabr

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

*Rakhimov Oktyabr, Tulayeva Soxiba*

KASBIY TAVAKKALCHILIKNI KAMAYTIRISHDA XAVFLARNI TASNIFINING TUTGAN O'RNI ..... 4-7

*Safoyev Nuriddin*

KVANT NUQTALI TEXNOLOGIYADA QUVVAT TAHLILI HUJUMLARI VA KRIPTOGRAFIK SXEMALARNI LOYIHALASH ..... 8-11

### TARIX FANLARI

*Begaliyeva Aysha*

ISLOHOTLARDAN KEYINGI DAVRDA ROSSIYA IMPERIYASI TEMIR YO'L TRANSPORT TIZIMINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI ..... 12-14

### IQTISODIYOT FANLARI

*Murtazayev Isabek*

ZARAFSHON MINTAQASIDA BUXORO VILOYATINING HUDUDIY-IQTISODIY SALOHİYATI VA TARMOQLARARO IXTISOSLASHUVI ..... 15-18

### FALSAFA FANLARI

*Maxmudov Izzatillo*

KORRUPSIYAGA QARSHI SIYOSAT VA IJTIMOİY HIMOYA ISLOHOTLARI O'ZARO BOG'LIQLIGI ..... 19-22

### FILOLOGIYA FANLARI

*Saydullayeva Aziza*

"YALMOG'IZ KAMPIR" ERTAGI: KOMPOZITSIYA, KONFLIKT VA YOVUZ QAHRAMON TAHLILI ..... 23-25

*Xamrakulova Farangiz*

TEMPORAL METAFORALARINING AQLIY VA MADANIY IDROKKA TA'SIRI ..... 26-28

### YURIDIK FANLAR

*Normurodova Behro'za*

RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO HAMKORLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI ..... 29-36

### PEDAGOGIKA FANLARI

*Xaqiqatbekov Zafarbek*

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR SALOMATLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA UNIVERSITET RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ..... 37-42

*Rustamova Shoxista*

TALABALAR TADQIQOT ISHLARINI XALQARO ILMIY PLATFORMALARDA INTEGRATSIYALASH: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR ..... 43-48

*Tagayev Odil*

VIRTUAL VA KENGAYTIRILGAN HAQIQAT (VR/AR) TEXNOLOGIYALARI DIDAKTIK IMKONIYATLARI ..... 49-51

*Xakimova Xosiyat*

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING NUTQ KO'NIKMALARINI BAHOLASHNING DIAGNOSTIK MODELI ..... 52-54

## TEMPORAL METAFORALARINING AQLIY VA MADANIY IDROKKA TA'SIRI

**Xamrakulova Farangiz**

Samarqand davlat chet tillar instituti  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Metaforalar zamonaviy kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan tildagi badiiy vosita emas, balki inson tafakkuri va konseptual tizimining ajralmas qismidir. Vaqt metaforalari esa abstrakt tushunchalarni shakllantirishning eng asosiy mental mexanizmlaridan biri sifatida qoraladi. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillardagi vaqt metaforalarining kognitiv jarayonlarga, madaniy amaliyotlarga va vaqtni idrok etish mexanizmlariga ko'rsatadigan ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot Sapir-Uorf lingvistik nisbiylik nazariyasi, Lakoff va Jonsonning konseptual metafora nazariyasi, Talmy va Langackerning kognitiv modellari kabi nazariy asoslarga tayangan holda amalga oshirilgan. Ingliz, mandarin, hopi va aymara tillari misolida vaqtning gorizontall, vertikal va noan'anaviy tasavvurlari tahlil qilinib, umumiy kognitiv tamoyillar va madaniyatga xos farqlar aniqlangan. Natijalar til tafakkur jarayonlarini to'liq belgilamasada, fikrlashdagi ustuvor konseptual yo'nalishlarni shakllantirishini tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** til va tafakkur, lingvistik nisbiylik, vaqt metaforalari, konseptual tizim, kognitiv lingvistika, mental xaritalar.

## THE IMPACT OF TEMPORAL METAPHORS ON MENTAL AND CULTURAL PERCEPTION

**Khamrakulova Farangiz**

Samarkand State Institute of Foreign Languages  
independent researcher

**Annotation.** From the perspective of modern cognitive linguistics, metaphors are not merely artistic devices in language but an integral part of human cognition and conceptual systems. Temporal metaphors, in particular, are regarded as one of the fundamental mental mechanisms for structuring abstract concepts. This article examines how temporal metaphors in Uzbek and English influence cognitive processes, cultural practices, and mechanisms of time perception. The study is based on theoretical frameworks such as the Sapir-Whorf hypothesis of linguistic relativity, Lakoff and Johnson's Conceptual Metaphor Theory, as well as cognitive models developed by Talmy and Langacker. Through the analysis of horizontal, vertical, and non-traditional conceptualizations of time in languages such as English, Mandarin, Hopi, and Aymara, both universal cognitive principles and culture-specific features are identified. The findings confirm that although language does not rigidly determine cognitive processes, it does shape dominant conceptual orientations in human thinking.

**Key words:** language and cognition, linguistic relativity, temporal metaphors, conceptual system, cognitive linguistics, mental mapping.

Til — bu muloqot vositasi bo'lishdan tashqari, inson ongining ishlash mexanizmini aks ettiruvchi murakkab kognitiv tizimdir. Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan, tilda qo'llaniladigan barcha grammatik va semantik birliklar insonning dunyoni qanday idrok etishi va tushunishiga bevosita bog'liq. Ayniqsa vaqt kabi abstrakt kategoriyalar tilning metaforik tizimi orqali shakllanadi.

Metafora tilning nafaqat badiiy vositasi, balki inson tafakkuri va madaniyatini aks ettiruvchi muhim kognitiv mexanizm hisoblanadi. Lakoff va Johnson (1980) ta'kidlaganidek, metafora insonning kundalik fikrlash tizimini, abstrakt tushunchalarni konseptuallashtirish usullarini belgilaydi. Ulardan biri — temporal metaforalar, ya'ni vaqtning metaforik ifodalanishi, turli tillar va madaniyatlarda alohida ahamiyat kasb etadi.

Sapir–Uorf gipotezasiga ko'ra, til dunyoqarashni shakllantiradi va ma'lum ma'noda cheklaydi. Shunday ekan, vaqt bilan bog'liq metaforalar har bir xalqning kognitiv modeli, tarixiy hayoti va madaniy qadriyatlari haqida ma'lumot beradi.

Sapir–Uorf gipotezasining kuchsiz varianti til va tafakkur o'rtasida kuchli deterministik bog'lanish yo'qligini ko'rsatsada, tilning insonning odatiy fikrlash yo'nalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Vaqtning fazo orqali konseptuallashtirish esa bu aloqaning eng yorqin namunasidir. Vaqtning metaforik talqini madaniyatga qarab turlicha bo'lgani uchun, vaqt idroki antropologik xususiyatlarni ham aks ettiradi. Bu esa vaqt metaforalarining tahlilini nafaqat lingvistik, balki kognitiv, madaniy-antropologik va psixologik tadqiqotlar bilan bog'laydi.

Ko'pchilik uchun metaforalar tilda, ayniqsa badiiy matnlarda, faqatgina bezak vositasi sifatida qabul qilinadi. Biroq, so'nggi o'n yilliklarda olib borilgan tadqiqotlar metaforalar inson tafakkurida muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Konseptual metafora nazariyasi haqida juda ko'plab olimlar tadqiqot olib borishgan. Lakoff va Jonson (1980) ta'kidlaganidek, inson ongida abstrakt konseptlar ko'pincha konkret tajriba sohalari asosida tashkil qilinadi. Vaqtning fazoviy metaforalari (old-orqa, yuqori-past, yaqin-uzoq) insonning jismoniy tajribasiga asoslangan. Sapir va Uorfning asosiy quyidagi g'oyalarni ilgari surishadi. Birinchidan, til insonning odatiy fikrlash usulini yo'naltiradi, konseptual tasniflarni shakllantiradi, madaniy xulqqa ta'sir ko'rsatadi. Bu nazariya bugungi kunda kognitiv psixologiya, neyrolingvistika va antropologiya tomonidan qisman tasdiqlangan.

1. Ingliz tilida vaqtning konseptuallashuvi. Vaqt – iqtisodiy resurs hisoblanadi. G'arb jamiyatlari individualistik bo'lgani uchun ingliz tilida vaqt ko'pincha moddiy, iqtisodiy qadriyat sifatida ifodalanadi:

*spend time (vaqt sarflash)*  
*save time (vaqtni tejash)*  
*waste time (vaqtni isrof qilmoq)*  
*invest time (vaqt investitsiya qilish)*

Bu metafora kapitalistik madaniyatning kognitiv modeli natijasidir. Vaqt – chiziqli harakat deb qarash. Ingliz madaniyatida vaqt oldinga yo'nalgan chiziq sifatida ko'riladi:

*the future lies ahead*  
*leave the past behind*

Bu esa G'arbning progressiv, maqsadga yo'nalgan dunyoqarashini aks ettiradi. O'zbek tilida vaqtning konseptuallashuvi. Vaqt – ma'naviy-axloqiy qadriyat deb qarash. O'zbek madaniyati kollektivistik bo'lgani uchun vaqt ko'proq hayotiy tajriba, saboq, ne'mat sifatida ko'riladi:

*vaqtning qadriga yet*  
*vaqt – buyuk hakim*  
*vaqt – Allohning ne'mati*

Bu metaforalar Sharq falsafasi va diniy an'analar ta'sirida shakllangan. Vaqt – tabiat hodisasi kabi qarash. Ko'pincha vaqt oqim, harakat, tabiat bilan bog'lanadi:

*vaqt daryo misoli oqadi*  
*yillar shamoldek o'tadi*  
*umr yaproqlari to'kilmoqda*

Tabiatga yaqinlik Sharq madaniyatining asosiy belgilaridan biri. O'tmish – yaqin, kelajak – noaniqlik nazariyasi.

*o'tgan kunlar ko'z oldimda  
oldinda nima bor, hech kim bilmaydi*

O'zbek tilida o'tmish aniq va yaqin, kelajak esa mavhum tushuncha sifatida tasvirlanadi.

*Time flies – Vaqt “uchayotgan” obyekt sifatida tasvirlanadi.*

*We are running out of time – Vaqt cheklangan resurs sifatida.*

*The deadline is approaching– Vaqt sub'yektlar tomon harakat qiladi.*

*Yillar suvdek oqdi– Suv oqimi orqali vaqtning tez o'tishi tasvirlanadi.*

*Umr poyonsiz yo'l – O'tmish-kelajak yo'l sifatida ko'riladi.*

*Vaqtning ko'zi bor– Vaqt odillik va taqdir bilan bog'lanadi.*

Ingliz metaforalarida vaqt texnik va iqtisodiy, o'zbek metaforalarida tabiiy va ma'naviy model asosida shakllangan.

Xulosa. Vaqt metaforalari insonning tafakkurida markaziy o'rin tutib, madaniy qadriyatlar, dunyoqarash va kognitiv jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Turli tillarda vaqtning turlicha tasniflanishi tilning inson idrokiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. Lingvistik nisbiylikning kuchsiz varianti tasdiqlanadi: til fikrlashni yo'naltiradi, lekin uni qat'iy belgilamaydi.

Ingliz va o'zbek temporal metaforalari universal kognitiv asosga ega bo'lishiga qaramay, madaniyat ta'sirida turlicha shakllanadi. Ingliz tilida vaqt iqtisodiy resurs, chiziqli jarayon sifatida qaraladi. O'zbek tilida esa vaqt ma'naviy qadriyat, tabiat hodisasi, taqdir va hayotning bir bo'lagi sifatida konseptuallashtiriladi. Ushbu farqlar xalqning qadriyati, tarixi, diniy e'tiqodi va ijtimoiy tajribasi bilan bevosita bog'liqdir.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. Chicago University Press. 1980. P.84-86.
2. Evans, V., & Green, M. *Cognitive Linguistics*. Lawrence Erlbaum Associates. 2006. P. 96-98.
3. Kövecses, Z. *Metaphor: A Practical Introduction\** Oxford University Press. 2010. P. 205.
4. Sharifjonov, M. *Kognitiv lingvistika asoslari*. Toshkent. 2019. 49-52 B.
5. Bozorov, O. *Til va tafakkur munosabatlari*. Toshkent. 2021. 34-39 B.

# **O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR**

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**  
2025-yil, dekabr

**Mas’ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar.** IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-jild, 4-son (dekabr, 2025-yil). – 55 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** “Scienceproblems Team” MChJ

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2025-yil, 9-dekabr

**ISBN-978-9910-8337-5-5**

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.